XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar VI-64-4-10-135-K/23 Bekobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining 2023- yil 9- yanvarda qabul qilgan “Bekobod tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI.63-3-10-135-K/23-sonli qarorini xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi 67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiqlashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining 2023-yil 9-yanvardagi “Bekobod tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI.63-3-10-135-K/23-sonli qarorini Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi 67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiqlashtirish maqsadida xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi 67-1-10-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi 67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Bekobod tumani mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 202 664 211,0 ming.so‘m va xarajatlari 202 664 211,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **1-ilova**ga

muvofiq qabul qilinsin.

4.2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5.2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6.2023-yil uchun Bekobod tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

7.2023-yil uchun viloyat byudjetidan Bekobod tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 101 937 053,0 ming.so‘m etib belgilansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori Bekobod tuman mahalliy byudjeti daromadi prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8.2023-yil uchun Bekobod tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 911 927,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetining 2023 yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9.2023-yil uchun Bekobod tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 260,378,0 ming.so‘m qilib belgilansin.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **5-ilova**ga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, jismoniy shaxslarga soliq yukining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlariga, shuningdek ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan quyidagilar belgilansin:

2018-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol–mulk solig‘i summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozim.

11.O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023 - moliya yilidan boshlab:

a)«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Beknazarov), tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (M.Turdimatova), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman mahalliy byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

tuman mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

tuman mahalliy byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

tuman mahalliy byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov), tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi (O.Yoqubov) bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15.Prokuratura byurosi Bekobod tuman bo‘limi (O. Gulyamov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga

nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo‘limi (Yo.Mo‘minova), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17.Tuman hokimi o‘inbosari v.v.b (I. Majidov)ga

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar,video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi

to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

19.Tuman irrigatsiya bo‘limi (Z. Karaboyev) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov) tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20.Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Raxmatov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (F.Qo‘ydimurodov), Davlat xizmatlari markazi tuman bo‘limi (U.Mirzaev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21.Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishi;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha monitoring o'tkazish;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etib, ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Beknazarov)

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23.Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24.Bekobod tuman hokimligi matbuot xizmatiga:

mazkur qarorni rasmiy e’lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va tuman gazetasida joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26.Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining 2023-yil 9-yanvardagi VI.63-3-10-135-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsialar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Qurbonov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Beknazarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Ф. Худойбердиев**

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
1-ilova

Bekobod tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Daromad turlari		Summa ming so‘m	Ajratma Me’yori
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1,569,343	63%
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	3,627,029	50%
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23,944,532	63%
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	910,000	100%
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	9,122,233	100%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,220,758	100%
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,025,939	100%
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	12,375,296	100%
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12,301,498	100%
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1,093,619	100%
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,962,701	100%
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	264,233	100%
JAMI		**74,417,181**	
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**26,309,977**	
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	10,643,734	
14	Mobil aloqa xizmati	4,565,543	
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	11,100,700	
JAMI DAROMAD		**100,727,158**	

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Bekobod tuman mahalliy byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag‘larning cheklangan miqdorlari

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**202,664,211**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**151,229,032**
1.1	Maorif	18,740,221
	- maktabgacha ta’lim	7,303,836
	- umumiy ta’lim	11,436,385
1.2	Sog‘liqni saqlash	79,251,259
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	7,128,561
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1,460,512
	- sport	5,668,049
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	45,857,271
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55,200
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	196,520
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**17,107,027**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	598,800
2.2	Obodonlashtirish	12,224,354
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	2,068,265
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1,155,525
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1,060,083
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**19,160,918**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	19,160,918
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3,695,674**
5	**Zaxira jamg‘armasi**	**1,911,927**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**9,559,633**

Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Bekobod tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Bekobod tuman**	63%	63%	100%	100%	100%	50%	100%	100%

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
4-ilova

Bekobod tuman mahalliy byudjetining 2023-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Bekobod tuman	202 664 211,0	202 664 211,0
	JAMI	**202 664 211,0**	**202 664 211,0**

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shahslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shahslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		2023-yil		2023-yil	
		Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1	Nayman MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
2	Uyas MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
3	Achamayli MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
4	Shova MFY	1.00	29,700.0	1.00	267.3
5	Qo‘qoni MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
6	Yangi ovul MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
7	Qushtamg‘ali MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
8	Taqachi MFY	1.00	29,700.0	1.00	267.3
9	Istiqbol MFY	1.00	29,700.0	1.00	267.3
10	Xos MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
11	Yoshlik MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
12	Do‘stlik MFY	0.90	26,730.0	0.90	240.6
13	O‘zbekiston MFY	0.90	26,730.0	0.90	240.6
14	O‘rikzor MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
15	Ilg‘or MFY	0.90	26,730.0	0.90	240.6
16	Qo‘rg‘on MFY	0.90	26,730.0	0.90	240.6
17	Gulzor MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
18	Mallaboy MFY	1.00	29,700.0	1.00	267.3
19	Nazarboy MFY	1.00	29,700.0	1.00	267.3
20	Isfara MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
21	Terakzor MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
22	Qushchi MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
23	Xamza MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
24	Oq-tepa MFY	0.75	22,275.0	0.75	200.5
25	O‘zbekobod MFY	0.95	28,215.0	0.95	253.9
26	Bunyodkor MFY	0.95	28,215.0	0.95	253.9
27	Bog‘ishamol MFY	0.95	28,215.0	0.95	253.9
28	Bobur Mirzo MFY	0.95	28,215.0	0.95	253.9

29	**Dalvarzin MFY**	0.95	28,215.0	0.95	253.9
30	**Yangibozor MFY**	0.95	28,215.0	0.95	253.9
31	**Oltin vodiy MFY**	0.95	28,215.0	0.95	253.9
32	**Ziyoli MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
33	**Xonobod MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
34	**Parchayuz MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
35	**Musaqillik MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
36	**Pastki Kerait MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
37	**Beshyuz MFY**	0.95	28,215.0	0.95	253.9
38	**Farxod MFY**	0.95	28,215.0	0.95	253.9
39	**Saryuz MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
40	**Turon MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
41	**Bo‘ston MFY**	1.05	31,185.0	1.05	280.7
42	**Guliston MFY**	1.05	31,185.0	1.05	280.7
43	**Istiqlol MFY**	1.05	31,185.0	1.05	280.7
44	**Yangi-Hayot MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
45	**Qolg‘onsir MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
46	**Savrak MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
47	**Qora-qo‘yli MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
48	**Birdamlik MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
49	**Paxtakor MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
50	**Yoshlik-2 MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5
51	**Dehqonobod MFY**	0.75	22,275.0	0.75	200.5

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-64-4-10-135-K/23-son qaroriga
6-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Bekobod tumani	0.8	800 000,0